



## O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING KELAJAGIMIZ UCHUN AHAMIYATI

A.A.Xamidov<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri  
kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812871>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021  
Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021  
Chop etildi: 20-Dekabr 2021

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining qanchalik ahamiyatliligi va bu kontsepsidan kutilayotgan natijalar haqida*

### KALIT SO'ZLAR

*Parlament, Innovatsion,  
The Programme for  
International Student  
Assessment.*

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.Konsepsiya amalga oshirilishi natijasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda raqobatbardosh, zamonaviy

bilim va ko'nikmalarga ega yosh avlod shakllantiriladi.Konsepsiyaning amalga oshirishdan kutilayotgan natijalarni ikki guruhga ajratish mumkin.Birinchi guruhnинг yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, xususan, ularning salomatligi, ta'lim-tarbiyasi, iqtisodiy imkoniyatlari, ko'nikmalaridagi natijalar tashkil etadi:

- yoshlarning tibbiy madaniyati oshiriladi, sog'lom turmush tarzi, shaxsiy gigiyena, to'g'ri va ratsional ovqatlanishga rioya etish ko'rsatkichlari oshadi;
- umumta'lim maktablarida 7-sinf o'quvchilarining kasblar kesimida qiziqishini aniqlash, 8-9-sinf o'quvchilarini zamonaviy va istiqbolli kasblar bilan tanishtirib



- borish, 10-sinfdan o'quvchilarni davlat va nodavlat o'quv markazlari yordamida kasbga o'rgatish va ularning xarajatlarini "vaucher" tizimi orqali qoplab berish mexanizmi yaratiladi;
- yoshlarni oliy ta'limga o'qishga qabul qilishda abituriyentning intellektual salohiyati, shaxsiy ko'nikmalarini, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyati va volontyorlik faoliyatlarini asosida saralash tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi;
  - oila, xususan, yoshlarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar oshirilib, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy qadriyatlarning mavqeyi mustahkamlanadi;
  - yoshlar o'rtaida erta tug'ruq holatlariga barham berishning samarali choralarini amalga oshiriladi;
  - madaniyat va san'at bilan muntazam shug'ullanadigan yoshlar soni 30 foizga oshirilib, ularning xalqaro tanlov va festivallardagi ishtiroki 40 foizga yetkaziladi;
  - yoshlarning 30 foizi ommaviy sport turlari bilan muntazam shug'ullanishiga erishiladi;
  - kitob o'qishni kundalik hayot tarziga aylantirgan yoshlar soni 70 foizga oshiriladi.
  - ikkinchi guruh natijalari mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishiga yoshlarning qo'shayotgan hissasi va yaratilayotgan shart-sharoitlar ko'lamini bilan belgilanadi:
    - joylarda yoshlarga oid normativ hujjatlar bajarilishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati doimiy amalga oshiriladi;
    - jamiyatda yoshlar uchun jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar teng huquq va imkoniyatlar yanada mustahkamlanadi;

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishiladi;

- ta'lim muassasalaridagi o'qitish dasturlari xalqaro standartlarga (PISA, STEAM) moslashtiriladi;

- bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarini, yoshlarning umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalariga qamrovi nodavlat ta'lim muassasalarini uchun imkoniyatlar kengaytirilishi hisobiga bosqichma-bosqich oshiriladi, jumladan, Respublikada 3 — 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80 foizi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinadi;

- yoshlarning madaniy saviyasini oshirish uchun kutubxonalar, teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, istirohat bog'lari va boshqa madaniyat muassasalarini soni bosqichma-bosqich oshiriladi;

- yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-



sharoitlar yaratilib, sport inshootlarining sig'imi 30 foizga oshiriladi;

- mahallalarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi;

- barcha hududlarda IT-parklar barpo etiladi, tuman (shahar)larda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etiladi, "Bir million o'zbek dasturchi" loyihasi asosida 200 mingga yaqin yoshlar o'qitiladi;

- yoshlarning sifatli, tezkor va arzon internet xizmatlaridan foydalanishi uchun sharoitlar yaratiladi, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini 2 baravar o'stirish ta'minlanadi;

- kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, yangi asarlarni yaratish, tarjima qilish va mualliflarni rag'batlantirishning kompleks chora-tadbirlari amalga oshiriladi;

- nogironligi bor yoshlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro normativ hujjatlar implementatsiya qilinadi;

- yoshlar va hukumat o'rtasidagi tizimli muloqotni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinnbosarlari huzurida iqtidorli, faol va tashabbuskor yoshlarni birlashtirgan sohalar bo'yicha "Yoshlar kengashlari" faoliyati yo'lga qo'yiladi;

- yoshlar hayoti, o'y-kechinmalari, orzu-niyatlari, dolzarb muammolarini internet, radio, televide niye, gazeta va jurnallarda keng yoritish bo'yicha "Yoshlar media xoldingi" tashkil etiladi;

- xorijiy davlatlarga ishlash uchun chiqib ketayotgan hamda norasmiy ish bilan band bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ta'minoti va mehnat muhofazasi ta'minlanadi;

- mehribonlik uylari bitiruvchilari bandligi to'laqonli ta'minlanadi, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuviga ko'maklashishda samarali mexanizmlar joriy etiladi;

- ta'lim muassasasini tamomlab, birinchi bor ish izlayotgan, muddatli harbiy xizmatni o'tagan yoshlar, xotin-qizlar, ayniqsa bola parvarishi bo'yicha ta'tildan qaytgan ayollarning ishga joylashishda sun'iy to'siqlar bartaraf etiladi;

- volontyorlik faoliyatining institutsional tuzilmalari, jumladan, "Volontyorlar maktablari", "Volontyorlik markaz"lari yaratiladi;

- xalqaro va mintaqaviy darajadagi davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlari, xalqaro moliya institutlari, donor-mamlakatlar hamda xorijiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari, ilmiy institutlari bilan yoshlar siyosati sohasida hamkorlik mustahkamlanadi;

- xorijda istiqomat qilayotgan yosh vatandoshlar bilan doimiy muloqot va hamkorlik mexanizmlari yo'lga qo'yiladi, O'zbekistonning chegara, anklav, eksklav hududlarida ahil qo'shnichilik, do'stlik, bag'rikenglik muhiti yanada mustahkamlanadi;

- mamlakatda olib borilayotgan yoshlar siyosati sohasidagi islohotlar to'g'risida jahon hamjamiatiga xolis axborot yetkazib beriladi hamda yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeyi oshiriladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)